

## Yuridik shaxslar uchun elektr ta'minoti SHARTNOMASI

2022-yil "19" yanvar

164-son

Qarshi shahar

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Qarshi shahar ET rahbari \_\_\_\_\_ keyingi o'rinlarda "Korxonalar" deb ataladi) bir tomondan hamda Nizom asosida faoliyat yurituvchi Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i Ostanov O'ral Suyunovich (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), hisob raqami-164/2 ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti

Ushbu shartnoma bilan "Korxonalar" tarmoqlari orqali elektr energiyasini (keyingi o'rinlarda - energiya deb ataladi) "Iste'molchi"ga (Adliya boshqarmasi ma'muriy binosi) yetkazib berish, "Iste'molchi" esa iste'mol qilingan energiya haqqini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

### II. Yetkazib berilgan energiya hisobi

2.1. Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

aktiv 84 666 kVt.s., reaktiv \_\_\_\_\_ kVar.s. tashkil etadi.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi **bir stavkali** so'm tarif bo'yicha 15 599 700 so'mni tashkil etadi.

2.3. "Iste'molchi"ga energiya ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq yetkazib beriladi.

2.4. "Iste'molchi" tomonidan haq to'lanishi lozim bo'lgan xaqiqiy qabul qilib olingan energiyaning hajmi hisobga olish asboblarining (keyingi o'rinlarda - hisoblagichlar deb ataladi) ko'rsatkichlari asosida ushbu shartnomaning 2-ilovasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.

### III. Hisob-kitob qilish tartibi

3.1. Energiya uchun hisob-kitoblar tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki o'sib boruvchi koeffitsiyentli tariflar asosida amalga oshiriladi (narx shakllantirishning alohida tartibi).

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) energiya uchun hisob-kitoblarni sutka vaqtlarining tabaqalashtirilgan tarifi bo'yicha amalga oshiradi.

Tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz payt – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> gacha) – o'rnatilgan tarif bo'yicha;

tig'iz payt – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha, kechki eng katta miqdor soat 17<sup>00</sup> dan 22<sup>00</sup> gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsiyentni ko'llash orqali;

tungi payt – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarida: 22<sup>00</sup> dan 24<sup>00</sup> gacha va 00<sup>00</sup> dan 6<sup>00</sup> gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda kamayuvchi koeffitsiyentni ko'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhidagi "Iste'molchi"larning bir stavkali tarifiga muvofiqdir.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan "Iste'molchi"ga energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Ulangan quvvati 750 kVA gacha bo'lgan "Iste'molchi"ga energiyani realizatsiya qilish narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxatiga kiruvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi "Iste'molchi" uchun Hukumat qarori bilan belgilanadigan tariflar va o'sib boruvchi koeffitsiyentli to'lovlar asosida amalga oshiriladi.

3.3. Ushbu shartnoma bo'yicha hisob-kitob davri bir oy hisoblanadi.

3.4. "Iste'molchi" har oyda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (keyingi o'rinlarda "Byuro" deb ataladi) vakolatli vakili ishtirokida hisob-



kitob davri oxirida hisoblagichlar ko'rsatkichlarini yozib oladi va ushbu shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobotni tuzadi.

"Iste'molchi" energiya sarfi bo'yicha hisobotni "Korxonaga" har oyning 25 sanasigacha chopar orqali yoki faksimil aloqa yoxud elektron pochta aloqasi orqali taqdim etadi.

Bunda, to'lovlarni tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiruvchi, ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan "Iste'molchi" bo'yicha energiya (aktivva reaktiv) sarfining to'liq hajmidan tashqari, alohida-alohida tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlardagi hajmlari ham aniqlanishi shart.

3.5. Tariflar o'zgarganida "Iste'molchi" yetkazib berilayotgan energiya uchun yangi tariflar kuchga kirgan kundan boshlab iste'mol qilingan energiya uchun yangi tariflar bo'yicha haq to'laydi.

3.6. "Iste'molchi"ga energiyani yetkazib berish kelgusi hisob-kitob davri boshlanishidan oldin, energiyaning shartnomaviy miqdori qiymati uchun 100 foizlik oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi.

3.7. Energiya sarfi bo'yicha hisobot asosida "Korxonaga" o'rnatilgan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi hamda hisob-faktura va to'lov hisobvarag'ini yozib beradi.

"Iste'molchi"da turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyekt mavjud bo'lgan taqdirda, har bir tarif guruhi ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi.

3.8. Hisoblagichlar ushbu shartnomaning 4-ilovasidagi tomonlarning elektr tarmoqlari balans mansubligi va foydalanish bo'yicha mas'ulligini taqsimlash bo'yicha dalolatnomaga muvofiq aniqlanadigan elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisoblagich o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkadagi energiyaning texnologik sarfining hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu shartnomaga 5-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi.

Bunda, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiruvchi 750 kVA va undan yuqori bo'lgan quvvatga ulangan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanishi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, jami olingan energiya hajmining tegishli paytlariga to'lov hisob varag'ini yozish uchun mutanosib ravishda qo'shib boriladi.

3.9. Hisoblagichlar ko'rsatkichi yozib olinmagan yoki energiya sarfi to'g'risidagi hisobot "Iste'molchi" tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, "Korxonaga" tomonidan energiya iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun energiya iste'molining amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi, bu haqda "Iste'molchi"ning hisob varag'ida tegishli ravishda qayd qilinadi.

Hisoblagichlar ko'rsatkichi nazorat tartibida "Byuro" tomonidan yozib olingandan keyin "Korxonaga" tomonidan amalda iste'mol qilingan energiya uchun belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

3.10. "Iste'molchi"ning energiya uchun to'lovlar, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek hisobga olinmagan energiya qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi"ning aybi bilan ushbu shartnomada ko'rsatilgan energiya hajmi to'liq iste'mol qilinmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun esa - 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.11. Shartnomada keltirilgan hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilinganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha iste'mol qilingan energiyaning jami hajmi uchun belgilangan tarifning 1,5 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

3.12. "Iste'molchi" "Korxonaga" bilan birgalikda har oyda, hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.13. "Iste'molchi"ni elektr tarmoqlaridan uzish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:



Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda;

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan energiya uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

“Byuro” talabnomalari ijro etilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisoblagichlar ko'rsatkichlarini olish uchun ruxsat etilmaganda;

hisoblagichlar qasddan buzilganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashilganda;

elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj qilish yoki Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

3.14. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, “Iste'molchi”ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.15. “Iste'molchi”ni tarmoqqa qayta ulash, “Iste'molchi” tomonidan qoidabuzarlik holati bartaraf etilib, mavjud qarzdorlik va to'lov paytidagi eng kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida to'lov undirilgandan so'ng amalga oshiriladi (ENHATga ulangan “Iste'molchi”lar bundan mustasno).

#### IV. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. “Iste'molchi” quyidagi huquqlarga ega:

o'zining elektr qurilmalarini texnik shartlarga muvofiq “Korxonada” elektr tarmoqlariga ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lgan energiya olish;

energiya yetkazib berishning tugatilishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

“Korxonada”ga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin 10 kundan kechikmay (joriy oy tugaguncha) berilishi lozim;

energiya to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan energiya yetkazib berilishi oqibatida yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplatish;

qonun hujjatlariga muvofiq bir taraflama tartibda shartnomani bekor qilish;

Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan energiya miqdori uchun to'langan summani qaytarilishini talab qilish;

energiya yetkazib berilishi tugatilganda zararni qoplashni talab qilish;

Shartnomani tuzish va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga yoki bo'ysunishi bo'yicha yuqori tashkilotga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

“Iste'molchi” qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. “Iste'molchi” quyidagilarga majbur:

energiya iste'mol qilishni belgilangan rejimiga rioya etish;

foydalanilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ekspluatatsiya qilayotgan elektr tarmoqlar, asboblari, elektr qurilmalarining texnik holatini lozim darajada saqlanishini, shuningdek, elektr qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, “Korxonada”ga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

energiyadan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

“Byuro” va “O'zdavenergonazorat” inspeksiyasining yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalarining talablarini bajarish;

belgilangan tartibda “Byuro” va (yoki) “Korxonada”ning tegishli vakiliga hisoblagichlarni ko'rishiga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin energiyaning zarur miqdori uchun “Korxonada”ga buyurtmanoma berish;



kelgusi yil uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda energiyani elektr tarmoqlaridan uzatishda, mahsulot ishlab chiqarish (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritishga, isitishga, shamollatishga energiya sarfini, shuningdek ushbu elektr tarmoqlariga ulangan sub "Iste'molchi"larning ehtiyojini hisobga olish.

Shuningdek, 5 MVt va undan yuqori bo'lgan quvvatga ulangan "Iste'molchi":

iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori, energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi,

energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfini hisobga olishi va "Korxonalar"ning talabiga ko'ra xabar qilishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.3. Korxonalar quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi"dan shartnomada belgilangan majburiyatlarni lozim darajada bajarilishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda "Iste'molchi" tomonidan yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish;

elektr xo'jaligi obyektlarida avariya holatlarni oldini olish yoki ularni bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rish zarurati bo'lganda, "Iste'molchi"ni ogohlantirmay va u bilan kelishmay unga energiya yetkazib berishni cheklash;

"Byuro" yozma ko'rsatmasiga muvofiq "Iste'molchi"ni elektr tarmoqlardan o'chirish, shuningdek ENHATga ulangan yoki oldindan to'lov qurilmasiga ega hisoblagichi bo'lgan "Iste'molchi"larni oldindan to'lov tugagandan so'ng o'chirish.

"Korxonalar" qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Korxonalar quyidagilarga majbur:

ulangan elektr tarmoqlar orqali "Iste'molchi"ga - elektr tarmoqlarining mansublik chegarasiga shartnomada belgilangan xajmdagi energiyani uzluksiz yetkazib berish;

qurilmalarni, elektr uzatish liniyalarini, hisoblagichlarni ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek o'zining elektr xo'jaligi obyektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr xo'jaligi obyektlarini ta'mirlash bilan bog'liq elektr ta'minotidagi uzilishlar to'g'risida uch kundan kechikmasdan ogohlantirish;

energiya yetkazib berilishidagi to'xtashlar to'g'risida va to'xtashlarning sabablari to'g'risida "Iste'molchi"ga ma'lum qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida cheklashlarni xajmi va vaqti ko'rsatilgan xolda oldindan xabar berish;

"Iste'molchi"ning energiya yetkazib berilmaganligi va elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi arizasini, "Iste'molchi"dan ariza olingandan kundan o'n kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va to'laqonli javob yo'llash;

"Iste'molchi"ga yetkazib berilgan energiya hisobini belgilangan tartibda olib borish;

"Iste'molchi"ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda energiyaning oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, energiyaning oylik shartnomaviy hajmini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - bu haqda, rad etish sabablarini ko'rsatgan holda "Iste'molchi"ga xabar qilish;

"Iste'molchi"ga o'rnatilgan hisoblagichlarni almashtirishni, o'rnatishni va ularga xizmat ko'rsatishni, shuningdek "Byuro" bilan birga ularni plombalashni ta'minlash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartiga muvofiq bo'lgan energiya yetkazib berish.

"Korxonalar" qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, "Korxonalar" buning natijasidagi yetkazilgan zararni qoplashga majbur, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. "Korxonalar":

"Iste'molchi" energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmagan, energiya



iste'molning shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'ygan taqdirda, "Korxonada" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan sutkalarda past sifatli energiya yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbaini avtomatik ulash, avtomatik qayta ulash va avtomatik davr-tezlikli o'chirishlarning ishlash vaqtida energiya yetkazib berishdagi tanaffuslar uchun "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.

5.3. "Iste'molchi" "Byuro" yozma ko'rsatmasiga muvofiq o'chirilganda yoki yengilmas kuch sharoitlari (fors-major) mavjud bo'lganda, "Korxonada" "Iste'molchi" oldida javobgar bo'lmaydi.

5.4. Ushbu shartnoma bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan tartibga solinadi. Ular muzokaralar yo'li bilan xal etilmagan taqdirda, sudga hal etiladi.

## VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Shartnoma muddati o'tishi bilan, agar tomonlarning birortasi uni muddatini uzaytirish yoki bekor qilish to'g'risida ariza bermagan bo'lsa, u keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Ariza shartnomaning amal qilish muddati tugashiga bir oy qolguncha berilishi kerak.

6.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan, tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.3. Shartnoma tomonlarning birini tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinishi ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda, tomonlarning o'zaro hisob-kitob qilganlik sharti bilan amalga oshirilishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda taqdim qilinadi.

6.4. Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda bo'lgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa haqiqiydir.

## VII. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari

### "Ta'minotchi"

Qarshi shahar ET

Manzil: **Qarshi shahar**

Telefon: \_\_\_\_\_

hisob raqam: **22636000900177786343**

dep.xis.raqam \_\_\_\_\_

Bank: **Karshi sh., AT Sanoat-Kurilish banki Karshi min.f.**

MFO: **00854** INN: **200666494**

OKONX: \_\_\_\_\_

### "Iste'molchi"

**Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi**  
(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

Manzil: **Qarshi shahri Islom Karimov**

**ko'chasi 55 uy**

Telefon: **8(375)-221-26-64**

**sh.x.v 10 00 2186 0104 0170 33 60 2009001**

Bank: **MBBB XKKB Toshkent shahri**

MFO: **00014** INN: **202101254**

OKONX: **97800**

G'aznachilik nomi: **Moliya vazirligi**

**g'aznachiligi**

G'aznachilik h/r **23402000300100001010**

G'aznachilik INN: **201122919**

Raxbar **O. S. Ostanov**

(imzo)

Raxbar



### Yurist xulosasi:

Mazkur shartnoma qonun doirasida tuzilgan deb xisoblayman.

Huquqshunos \_\_\_\_\_

D.Xudoyqulov

\_\_\_\_\_.2022-yil



Yuridik shaxslar uchun elektr ta'minoti shartnomasiga 1 - ilova

Yetkazib beriladigan energiya hajmi

1. Tarif guruhi \_\_\_\_\_
2. Faoliyat turi \_\_\_\_\_
3. "Iste'molchi" elektr qurilmalarining ulangan quvvati: \_\_\_\_\_ kVA (kVt)
4. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) \_\_\_\_\_
5. Hisob-kitob turi: \_\_\_\_\_

tarif turi: tabaqalashtrilgan, bir stavkali yoki o'sib boruvchi koeffitsiyentli (kerakligi yozilsin)

	Energiya hajmi ming. kVt.s	Shu jumladan, tarif guruhlari bo'yicha		
<b>Yil, jami</b>	<b>34 666</b>			
Yanvar	11 556			
Fevral	11 555			
Mart	11 555			
Aprel	-			
May	-			
Iyun	-			
Iyul	-			
Avgust	-			
Sentyabr	-			
Oktyabr	-			
Noyabr	-			
Dekabr	-			

Imzolar:

"Iste'molchi":

O'. S. Ostanov

(M.O'. imzo)



"Korxonasi":

(M.O'. imzo)